



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

QORAQALPOG‘ISTON SHAHLARIDA 1960–1980-YILLARDA URBANIZATSIYA VA MODERNIZATSIYA JARAYONLARINING KUNDALIK HAYOTGA TA’SIRI

Seydametova Gulnara Utarbayevna

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti (PhD), dotsent

Annotatsiya

Maqolada 1960–1970-yillarda Qoraqalpog‘iston shaharlarida urbanizatsiya va modernizatsiya jarayonlarining kundalik hayotga ta’siri keng tahlil qilingan, kirish qismida urbanizatsiya va modernizatsiya jarayonlari shahar rivojlanishi va aholining kundalik hayotini shakllantirishda muhim ijtimoiy, demografik va iqtisodiy omillar sifatida ta’kidlanadi, tadqiqot metodologiyasi sifatida demografik ma’lumotlar, arxiv hujjatlari, statistik ko’rsatkichlar va shahar infratuzilmasi tahlilidan foydalanilgan, natijalar qismida shaharlar asosan dehqon aholisining ehtiyojlarini qondirish maqsadida faoliyat yuritgani, urbanizatsiya jarayonining migratsiya, aholi tabiiy o’sishi va tabiiy-iqlimiy sharoitlar bilan chambarchas bog‘liq ekanligi aniqlangani, muhokama va xulosa qismida esa ushbu jarayonlarning aholining kundalik hayoti, ijtimoiy munosabatlar va shahar infratuzilmasiga ta’siri keng ko‘lamda tahlil qilinib, urbanizatsiya va modernizatsiyaning Qoraqalpog‘istondagi shahar hayoti va ijtimoiy muhitidagi ijobiy va salbiy jihatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: kundalik hayot, Qoraqalpog‘iston shaharlari, urbanizatsiya, modernizatsiya, demografiya, shahar infratuzilmasi, migratsiya, aholi o’sishi.

ВЛИЯНИЕ ПРОЦЕССОВ УРБАНИЗАЦИИ И МОДЕРНИЗАЦИИ НА ПОВСЕДНЕВНУЮ ЖИЗНЬ В ГОРОДАХ КАРАКАЛПАКСТАНА В 1960–1980-Е ГОДЫ

Сейдаметова Гульнара Утарбаевна

Каракалпакский государственный университет имени Бердака, (PhD), доцент

Аннотация

В статье всесторонне анализируется влияние процессов урбанизации и модернизации на повседневную жизнь в городах Каракалпакстана в 1960–1970-е годы. Во введении урбанизация и модернизация рассматриваются как важные социальные, демографические и экономические факторы, формировавшие развитие городов и образ жизни населения. В качестве методологической основы исследования использованы демографические данные, архивные документы, статистические показатели и анализ городской инфраструктуры. В разделе результатов установлено, что города в основном функционировали с целью удовлетворения потребностей сельского населения, а процесс урбанизации был тесно связан с миграцией, естественным приростом населения и природно-климатическими условиями. В части обсуждения и выводов подробно проанализировано влияние данных процессов на повседневную жизнь населения, социальные отношения и городскую инфраструктуру, а также раскрыты положительные и отрицательные аспекты урбанизации и модернизации в социальной среде и городской жизни Каракалпакстана.

Ключевые слова: повседневная жизнь, города Каракалпакстана, урбанизация, модернизация, демография, городская инфраструктура, миграция, рост населения.

THE IMPACT OF URBANIZATION AND MODERNIZATION PROCESSES ON EVERYDAY LIFE IN THE CITIES OF KARAKALPAKSTAN (1960–1980S)

Seydametova Gulnara Utarbayevna

Berdakh Karakalpak State University, (PhD, Associate Professor)

Abstract

The article comprehensively analyzes the impact of urbanization and modernization processes on everyday life in the cities of Karakalpakstan during the 1960–1970s. The introduction emphasizes urbanization and modernization as significant social, demographic, and economic factors shaping urban development and the daily lives of the population. The research methodology is based on demographic data, archival documents, statistical indicators, and analysis of urban infrastructure. The results reveal that cities primarily functioned to meet the needs of the rural population, and that the process of urbanization was closely connected with migration, natural population growth, and climatic conditions. The discussion and conclusion sections extensively examine the influence of these processes on everyday life, social relations, and urban infrastructure, highlighting both the positive and negative aspects of urbanization and modernization in the urban and social environment of Karakalpakstan.

Keywords: everyday life, cities of Karakalpakstan, urbanization, modernization, demography, urban infrastructure, migration, population growth.

1960–1970-yillarda Qoraqalpog‘istonda shaharlar va ular aholisining kundalik hayoti transformatsiyasi ijtimoiy, demografik va iqtisodiy jihatdan katta ahamiyatga ega masala hisoblanadi. Ushbu davrda urbanizatsiya va modernizatsiya jarayonlari respublikada shaharlarni shakllantirish va rivojlantirishda asosiy rolni o‘ynagan, lekin kichik shaharlar va ularning infratuzilmasiga ta’siri hali yetarli darajada o‘rganilmagan. 1960-yillarda qishloq xo‘jaligi va sanoat kompleksi shaharsozlik salohiyati cheklangan bo‘lib, bu asosan kichik shaharlarning rivojlanishiga imkoniyat yaratgan, masalan, Xo‘jayli, Beruniy, To‘rtko‘l, Chimboy va Qo‘ng‘irot kabi aholi punktlari. Bu shaharlar hali to‘liq ma’noda shahar sifatida shakllanmagan, chunki ularning shaharlashuvi asosan aholi zichligi va markazlashuvi bilan bog‘liq bo‘lgan.

Shahar infratuzilmasi, ijtimoiy xizmatlar, savdo, sog‘liqni saqlash va turmush darajasini oshirish esa jamiyatning barcha sohalarida faoliyatni kengaytirishni talab qilgan. Urbanizatsiya jarayonlari migratsiya, aholi tabiiy o‘sishi, ijtimoiy munosabatlar va tabiiy-iqlimiy sharoitlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, aholining kundalik hayotini shakllantirgan muhim omil hisoblanadi.

Maqolaning maqsadi – 1960–1970-yillarda Qoraqalpog‘istonda urbanizatsiya va modernizatsiya jarayonlarining kichik shaharlar aholisi kundalik hayotiga ta’sirini tahlil qilishdan iborat. Obyekt sifatida Qoraqalpog‘iston shaharlari va ular aholisi olingan, predmeti esa urbanizatsiya va modernizatsiya jarayonlari hamda ularning shahar hayoti va kundalik turmushga ta’siridir. Tadqiqot ilmiy yangiligi shuki, urbanizatsiya va modernizatsiyaning shahar infratuzilmasi, demografiya va ijtimoiy muhitga ta’sirlari keng qamrovda tahlil qilinadi va kichik shaharlar misolida aholi turmushi hamda kundalik hayotning transformatsiyasi ilmiy asosda ochib beriladi.

Metodologiya (Methods). Ushbu tadqiqotda 1960–1970-yillarda Qoraqalpog‘iston shaharlarida urbanizatsiya va modernizatsiya jarayonlarining aholi kundalik hayotiga ta’sirini tahlil qilish uchun kompleks tadqiqot usullari qo‘llanilgan. Obyekt sifatida Xo‘jayli, Beruniy, To‘rtko‘l, Chimboy va Qo‘ng‘irot kabi kichik shaharlar olingan, predmeti esa urbanizatsiya

va modernizatsiya jarayonlari hamda ularning shahar hayoti, infratuzilma va ijtimoiy muhitga ta'siridir.

Metodologiyada tarixiy-analitik va muqoraviy usullar asosiy o'rin tutadi. Tarixiy-analitik usul orqali shaharlarning shakllanishi, urbanizatsiya va modernizatsiya jarayonlarining tarixi, demografik va ijtimoiy ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Muqoraviy usul orqali Qoraqalpog'iston shaharlari boshqa mintaqa va shaharlar misolida solishtirilgan hamda urbanizatsiyaning aholi turmushiga, infratuzilmasiga va ijtimoiy munosabatlarga ta'siri aniqlangan.

Tadqiqotda Qoraqalpog'istonda 1960–1970-yillarda urbanizatsiya va modernizatsiya jarayonlarining shahar aholisi kundalik hayotiga ta'sirini tahlil qilish maqsadida kompleks tadqiqot usullari qo'llanilgan, obyekt sifatida Xo'jayli, Beruniy, To'rtko'l, Chimboy va Qo'ng'iro't kabi kichik shaharlar va ular aholisi olingan, predmeti esa urbanizatsiya va modernizatsiya jarayonlari hamda ularning shahar hayoti, infratuzilma va ijtimoiy muhitga ta'siridir; tadqiqotda asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi Markaziy davlat arxivi hujjatlari, shaharsozlik rejalari va hisobotlari, Qoraqalpog'iston bo'yicha demografik statistik ma'lumotlar va aholi hisobotlari, ilmiy adabiyotlar hamda urbanizatsiya, modernizatsiya va shahar hayoti bo'yicha publitsistik va akademik tahlillar, shuningdek zamonaviy infratuzilma va ijtimoiy xizmatlar haqidagi hisobotlardan keng foydalanilgan, tarixiy-analitik va muqoraviy usullar orqali shaharlarning shakllanishi va urbanizatsiya jarayonlarining demografik, ijtimoiy va infratuzilmaviy ta'sirlari keng qamrovda tahlil qilingan hamda tadqiqot ilmiy yangiligi shuki, urbanizatsiya va modernizatsiyaning kichik shaharlar aholisi kundalik hayoti va ijtimoiy muhitiga ta'siri birgalikda aniq ilmiy asosda ochib berilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shuki, urbanizatsiya va modernizatsiya jarayonlari kichik shaharlar misolida aholi turmushi, demografiya, ijtimoiy muhit va infratuzilma bilan chambarchas bog'liq holda keng qamrovda tahlil qilinadi. Shu bilan birga, tadqiqot Qoraqalpog'istonda urbanizatsiya va modernizatsiya jarayonlarining kundalik hayotga ta'sirini aniq va ilmiy asosda ko'rsatish imkonini beradi.

Natijalar (Results). 1960-yillarda Xo'jayli va Beruniy shaharlarini respublika ahamiyatiga ega shaharlarga aylantirish amalga oshirilgan. 1959-yil aholi hisobotiga ko'ra, Xo'jaylida 31 ming, Beruniyda esa 10,5 ming kishi istiqomat qilgan. 1970-yilga kelib, aholi soni ikki baravarga oshib, Xo'jaylida 60,5 ming, Beruniyda 20,3 ming kishiga yetgan.

Ma'muriy markazlar sifatida Xo'jayli va Beruniy asosan oddiy (bir nomli tumanlar markazi) bo'lgan bo'lsa-da, Xo'jayli ahamiyatli transport uzeli sifatida ustunlikka ega bo'lgan. Ta'lim muassasalari faqat pedagogik uchilish bilan chegaralangan bo'lib, bu respublikadagi eng qadimgi ta'lim muassasalaridan biri sanalgan [1, 19]; Beruniyda shunga o'xshash muassasa faqat 1960-yillar oxirida ochilgan. Xo'jayli sanoat markazi sifatida rivojlanib, katta sanoat korxonalari va gaz magistrallari mavjudligi tufayli aholi o'sishi yuqori tempda sodir bo'lgan.

Xo'jayliy tumanidagi tezkor rivojlanishning yana bir muhim sababi 1950-yillar boshida tashkil qilingan Taxiotosh shahrini ushbu tuman tarkibiga qo'shish bilan bog'liq. Taxiotosh Amudaryo daryosining chap sohilida, Nukusdan 12 km masofada, Xo'jaylidan daryo oqimi bo'yicha bir oz yuqoriroq joylashgan. Taxiotoshning paydo bo'lishi Qoraqalpog'istonda sanoat energetikasini rivojlantirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan.

1950-yilda ishchi qishlog'i sifatida shakllangan Taxiotosh 1953-yilda rasman shahar maqomiga erishgan. Aholisi asosan ichki mehnat migratsiyasi hisobiga hamda qisman Taxiotosh GRES qurilishi uchun mahkumlarni ko'chirish orqali shakllangan. Markaziy va respublika matbuotida ushbu qurilish «Asrning ulkan qurilishi» deb atalgan va butun Ittifoq

chaqirig'i e'lon qilingan, bu qurilishga yuz minglab odamlarni jalb qilgan. Qurilishda Qoraqalpog'iston aholisidan tashqari, O'zbekiston viloyatlaridan va Sovet Ittifoqi boshqa respublikalaridan, shu jumladan Rossiya Federatsiyasidan ko'ngillilar ham kelgan, biroq birinchi bo'lib mahkumlar yetib kelgan: 1951-yilda qurilish maydoniga birinchi 1500 mahkum yetkazilgan [2, 1].

Ikkinchi aholi oqimi Taxiatoshdan 1950-yillarning ikkinchi yarmida kuzatilgan: GRES qurilishida biroz tanaffusdan so'ng, 1956-yilda O'zbekiston SSR hukumati «Taxiatosh GRES qurilishi bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida» qaror qabul qilgan. Ushbu qurilishga yoshlarni jalb qilish e'lon qilingan va komsomol chaqiriqlari orqali butun respublikadan yoshlar, shuningdek, SSSRning boshqa respublikalaridan malakali ishchi va muhandis-texniklar taklif qilingan [3, 48]. 1970-yilga kelib, Taxiatoshdan aholi soni 18 mingdan ortiq kishiga yetib, respublikada Nukus, Xo'jayli va Chimboydan keyin to'rtinchi o'rinda bo'lgan va an'anaviy ravishda katta shaharlar hisoblangan Qo'ng'iro't, To'rtko'l va Beruniydan ustun bo'lgan. 1980-yillarda Taxiatosh respublika ahamiyatiga ega shaharlar qatoriga kiritilgan va hozirgi kunda bu yerda taxminan 60 ming kishi istiqomat qiladi.

1975-yilga kelib Nukus aholisi 90,9 ming kishiga yetgan. Aholi soni bo'yicha ikkinchi shahar Xo'jayli bo'lib, unda 41,2 ming kishi istiqomat qilgan. Qoraqalpog'istondagi yirik shaharlar qatorida Beruniy (24,9 ming), Taxiatosh (24,8 ming), Chimboy (21,5 ming), To'rtko'l (21,4 ming) va Qo'ng'iro't (14,7 ming) ajralib turgan. Umuman olganda, 1959–1979-yillarda respublika aholisi 77% ga o'sgan, bu esa SSSRdagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biri sanalgan [4, 14].

1980-yil 1-yanvarga qadar respublika aholisi 930 ming kishiga yetgan, shundan shahar aholisi 394 mingni tashkil qilgan (ya'ni umumiy aholiga nisbatan 42%) [5, 5]. Nukus aholisi 17,1 ming kishiga oshib, 113,4 mingga yetgan. Aholi soni bo'yicha ikkinchi o'rin holati Xo'jaylida saqlanib qolgan (46,2 ming), so'ng Taxiatosh (31,6 ming), Beruniy (30,5 ming), To'rtko'l (26,2 ming), Chimboy (24 ming) va Qo'ng'iro't (23,9 ming) kelgan.

Shahar aholisining kundalik amaliyoti nuqtai nazaridan bir qator farqlar kuzatilishi mumkin. Xususan, Nukus va Xo'jayli respublikadagi boshqa shaharlarga nisbatan ko'proq ma'muriy va sanoat markazlari sifatida rivojlangan. Shu bois, bu shaharlarda turmush sharoitlari, daromad darajasi va hayot sifati nisbatan yuqori bo'lgan. 1970-yillarda Nukus va Xo'jayli shahar aholisining kundalik hayoti boshqa shaharlardagidan sezilarli darajada farq qilgan. Bu shaharlarda aholi tibbiy xizmatlarga, sifatli ta'limga, uy-joy, ichimlik suvi, tabiiy gaz, suv ta'minoti tarmog'i, shuningdek dam olish va mashg'ulotlar imkoniyatlariga nisbatan ustunlikka ega bo'lgan.

Aholi o'sishining eng yuqori tempi shimoliy hududlarda, ayniqsa chap sohil tumanlarida kuzatilgan. Bu hududlarda iqtisodiyot tez rivojlanganligi bilan bog'liq: Chardjou – Qo'ng'iro't temir yo'li qurilgan, katta gaz magistrallari ishga tushirilgan, sanoat korxonalari faoliyati yo'lga qo'yilgan. Respublika shimolida Nukus sanoat markazi rivojlansa, chap sohilida Taxiatosh, Xo'jayli va Qo'ng'iro't sanoat markazlari rivojlangan. Bu holat chap sohilga qishloq aholisining ko'chib kelishiga sabab bo'lgan. Ma'lumot beruvchilarning fikricha, 1960-yillarda qishloq aholisi asosan Xo'jayliy tumaniga, shuningdek, Kegeyli, Chimboy hamda sohil zonasidan ko'chib kelgan. Sohil zonadan ko'chib kelgan aholi sonining sezilarli darajada kamayishi baliqchilik hajmining qisqarishi va Orol dengizi qurishi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lgan. Bu jarayonlar urbanizatsiya va demografik o'zgarishlarga sezilarli ta'sir ko'rsatgan hamda shahar infratuzilmasi va aholining kundalik hayotini shakllantirishda muhim omil bo'lgan.

Qoraqalpog'iston – keskin kontinental iqlimga ega hudud bo'lib, shimolida paxta,

go'sht va kunga botmaydigan sabzavotlar, meva-sabzavotlar, bodom va uzum parvarish qilinadi. Ammo sabzavot, meva va uzum yetishtirishda hudud O'zbekistonning boshqa viloyatlaridan orqada qolgan. 1960-yillarda Xo'jayliy tumanida sabzavot va meva savdosini tashkil etish va ularni yig'ish ishlari holatini tekshirish natijasida aniqlanganki, davlat rejasi sabzavot uchun faqat 1,5% bajarilgan (reja 560 tonna, topshirilgan 8,9 tonna), meva uchun 22,2% (reja 130 tonna, topshirilgan 35 tonna), uzum uchun 0,6% (reja 115 tonna, topshirilgan 0,8 tonna) va kartoshkani topshirish ishlariga hali boshlanmagan, garchi kolxoz va sovxozlar RayPO ma'lumotlari bo'yicha respublikada birinchi bo'lib 190 tonna urug' kartoshka olib bo'lgan [6, 56].

1970-yillar o'rtalariga kelib, masalan, Nukusda barcha meva daraxtlari qurib ketgan. Shu paytdan boshlab, shahar aholisi, masalan, Nukus, Xo'jayli, Qo'ng'iro't, To'rtko'l va Beruniyda o'z bog'cha uchastkalarini qayta ishlab, pomidor, bodring, qo'ng'ir qalampir va boshqa sabzavotlarni yetishtirgan. Janubiy shaharlarda bu jarayon ancha avval boshlangan bo'lsa, shimoliy tumanlarda (Nukus, Xo'jayli, Qo'ng'iro't) bunday bog'chalarni o'zlashtirish 1970-yillardan boshlangan; biroq 1980-yillarda tuproq eroziyasi, yer osti suvlarining ko'tarilishi va yerning tuzlanishi bog'cha yerlarining holatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Bu jarayonda alohida ahamiyatli shahar – Chimboy bo'lib, u yerda aholi bog'chalarni qayta ishlashni faqat 1990-yillarda boshlagan.

1965-yildan boshlab davlat savdosida ayniqsa tez sur'atda o'sish kuzatilgan. Masalan, 1965-yil bilan solishtirganda 1975-yilda davlat savdosida tovar aylanmasi 2,5 baravarga, kooperativ savdoda esa 2 baravarga oshgan. Respublikada chakana savdoda davlat savdosining ulushi o'sishi bilan savdoni boshqarish strukturasi mustahkamlangan. 1964-yilda Qoraqalpog'iston Savdo vazirligi tasarrufida Nukus va Xo'jayli shahar savdosi bo'lib, bu shaharlarda amalga oshirilayotgan kooperativ savdo korxonalari asosida tashkil etilgan. Shuningdek, Xo'jayliy shahar savdosi Taxiatoshda ham bo'limiga ega bo'lgan. Savdo xizmatlariga bo'lgan talablarning ko'payishi savdoning ixtisoslashuvini taqozo qilgan.

Shahar aholisi soni 1960-yillarga kelib oshgani bilan Qoraqalpog'istonda aholiga xizmat ko'rsatish korxonalari rivojlanishni boshlagan. Masalan, 1964-yilda aholi uchun yangi xizmat turlari paydo bo'lgan: bolalar va ayollar salonlari, soch turmaklash salonlari, oyoq kiyimlarini tozalash punktlari, suv havzalarini ijaraga berish va dam olish zallari [7, 114]. 1964-yilda Xo'jayli, Taxiatosh, Qo'ng'iro't, Chimboy, Mo'ynoq va To'rtko'l'da xizmat ko'rsatish kombinatlari ochilgan, ularda 3–4 yo'nalishda pavilyonlar tashkil etilgan va turli ustaxonalar faoliyat yuritgan. Biroq, o'sha davrda aholiga xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyati juda qoniqarsiz bo'lgan.

Ushbu sohaning kamchiliklari orasida 1963-yil rejasiga ko'ra 12 ta hammom qurilishi ko'zda tutilgan bo'lsa-da, faqat 8 tasining qurilishi boshlanganligi qayd etiladi; Nukus va Xo'jayli shaharlarida kichik ustaxonalar asosida oyoq kiyimlari, soatlar, maishiy elektr uskunalari va qurilmalarni ta'mirlashga ixtisoslashgan atelye va ustaxonalar, shuningdek buyurtmalar qabul qilish uchun punktlar va harakatlanuvchi brigadalar tashkil etilishi rejalashtirilgan, ammo faqat Nukus va Xo'jaylida 2 ta qabul punkti tashkil etilgan [8, 29].

Shuningdek, mazkur sohani takomillashtirish maqsadida respublika shaharlari va tumanlarida uylarni tozalash, shishalash va oqlash ishlari, bola va bemorlarga qarash hamda boshqa maishiy xizmatlar ko'rsatish uchun «yaxshi xizmat byurolari» ochilishi rejalashtirilgan. Ushbu rejadan faqat Nukus, Xo'jayli, To'rtko'l, Chimboy va Qo'ng'iro't shaharlarida bolalarga qarash va uylarni tozalash byurolari tashkil etilgan [8, 29].

Nukus aholisining ko'pchiligi kir yuvish va muzlatgichlarni ta'mirlash uchun qabul punktlari mavjudligidan xabardor bo'lmagan. Maishiy texnika mahsulotlari yetishmasligi

tufayli bunday xizmatlarga talab juda katta edi. Albatta, kimyoviy tozalash xizmatlaridan deyarli foydalanilmagan, odatda kiyim-kechak uyda yuvilgan; ammo palto, plash va kostyumlarni yuvish uchun murojaat qilish joyi yo‘q edi, garchi Taxiotosh, Shumanay, Xo‘jayli va Xalqobodda qabul punktlari ochilgan bo‘lsa ham. Maishiy xizmatlardagi eng katta muammo kadrlar malakasining yetishmasligi yoki pastligi bilan bog‘liq edi.

Qoraqalpog‘iston sharoitida qurilish materiallari va ularni ishlab chiqarish quvvatlari yo‘qligi muhim omil hisoblangan, garchi qurilish materiallari ishlab chiqarilishi yildan yilga o‘sib borgan. Faqat 1970-yillar o‘rtalarida Xo‘jayli, Nukus va Qo‘ng‘irot g‘isht zavodlarida ish mexanizatsiya qilingan. Bu korxonalarning texnik jihozlanishi juda sust bo‘lgan.

1970-yil yavvarda QQSSR kommunal xizmatlari vaziri Davletmuratov T.D. nutqida Nukus va Xo‘jaylida suv ta‘minoti ko‘pincha uzluksiz berilayotgani, gaz ta‘minotida muammolar, shuningdek maishiy xizmatlarda (hammolar, mehmonxonalar, issiqxonalar, kir yuvish punktlari, suv tarmog‘i, issiqlik stansiyalari) muammolar mavjudligi qayd etilgan [9].

Qoraqalpog‘iston shahar aholisi uchun eng jiddiy muammo, industrializatsiyaning tez sur‘ati bilan bog‘liq holda, uy-joy masalasi bo‘lgan. XX asrning ikkinchi yarmida sanoat markazlariga aylangan Taxiotosh, Xo‘jayli va Nukus shaharlari rahbariyati uchun uy-joy masalasini hal qilish ustuvor vazifa sifatida qo‘yilgan. Uy-joy muammosi hal qilingan bo‘lsa-da, bu sekin sur‘atda amalga oshirilgan, chunki uy-joy qurilishi aholi o‘shishiga amalda yetib olmagan.

Shu tariqa, shaharlar va shahar aholisining shakllanishi asosan shaharlarning geografik joylashishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Masalan, sanoat hududlarida aholi o‘shishi tez bo‘lgan, agrar sektorlarda esa bu ko‘rsatkich ancha orqada qolgan [10].

Muhokama (Discussion). Maqolada olingan natijalar asosida Qoraqalpog‘istonda 1960–1970-yillarda urbanizatsiya va modernizatsiya jarayonlari shahar aholisining kundalik hayotiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgani aniqlandi. Sanoat markazlari – Nukus, Xo‘jayli, Taxiotosh – aholi o‘shishi va migratsiyaning markaziga aylangan, bu shaharlarda xizmatlar va infratuzilma tezroq rivojlangan. Bunga qarama-qarshi, agrar hududlarda urbanizatsiya sekin bo‘lgan, bu yerlarda aholi turmush darajasi va xizmatlar sifati pastroq bo‘lgan.

Tadqiqotdan ko‘rinib turibdiki, aholiga xizmat ko‘rsatish sohasidagi muammolar – uy-joy, suv ta‘minoti, gaz ta‘minoti va maishiy xizmatlar bilan bog‘liq bo‘lib, ular urbanizatsiyaning tez sur‘ati bilan bog‘liq bo‘lgan. Bu holat yuqori aholi o‘shishi va shahar infratuzilmasi o‘rtasidagi nomutanosiblikni ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Qoraqalpog‘istonda geografik va iqlim sharoitlari urbanizatsiya va kundalik hayotning transformatsiyasiga ta‘sir qilgan: shimoliy hududlarda tuproq eroziyasi, yer osti suvlari va tuzlanish kabi tabiiy muammolar aholi turmushiga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan.

Natijalarni SSSR va Markaziy Osiyodagi boshqa mintaqa tajribasi bilan solishtirganda, urbanizatsiya va sanoat rivojlanishi shahar aholisi turmushi va demografiyasiga bevosita ta‘sir qilishi, ayniqsa kichik shaharlardagi infratuzilma va xizmatlar bilan bog‘liq masalalarda umumiy tendensiya sifatida namoyon bo‘lgan [11]. Tadqiqotning cheklovlari orasida ma‘lumotlar bazasining to‘liq emasligi, kichik shaharlar bo‘yicha statistikaning cheklanganligi va kadrlar malakasining pastligi qayd etilishi mumkin.

1960–1970-yillarda Qoraqalpog‘istonda urbanizatsiya va modernizatsiya jarayonlari shahar aholisi kundalik hayotini shakllantirishda asosiy omil bo‘lgan. Sanoat markazlari aholi o‘shishi va migratsiyaning markaziga aylanib, infratuzilma va ijtimoiy xizmatlarning rivojlanishiga olib kelgan. Shimoliy hududlarda tabiiy va iqlim omillari aholi turmushiga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan, bu esa geografik joylashuv ahamiyatini namoyon qilgan. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, Qoraqalpog‘istondagi kichik shaharlar misolida

urbanizatsiya va modernizatsiyaning demografik, ijtimoiy va kundalik hayotga ta'siri ilmiy asosda tahlil qilingan. Bu natijalar shaharlarni boshqarish va demografiyani rivojlantirish siyosati uchun muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Калилаев А. Қорақалпоғистонда ўрта махсус таълимнинг ривожланиш тарихи (1925–2000 йиллар) (Хўжейлий педагогик коллеж мисолида). АКД. – Нукус, 2003.
2. Қорақалпоғистон Республикаси Жокаргы Кенеси Архиви (АЖК РК), ф.1, оп.7, д.635, л.1.
3. Карвасарный В.И. Қорақалпақстан энергетикаси: кеча ҳамда бугун. – Нукус, 1998. – Б.48.
4. Население СССР. – Москва, 1983. – Б.14.
5. Қорақалпақ АССРнинг халқ хўжалиги 1976–1980 йиллар. Статистик тўплам. – Нукус, 1981. – Б.5.
6. Марказий давлат архиви РК (ЦГА РК), ф. 322, оп. 2, д. 518, л. 56.
7. Носиров Б. XX асрнинг 60–80 йилларида Қорақалпоғистонда маиший хизмат кўрсатиш аҳволи хусусида // «Бердах номидаги ҚГУ хабарчиси», 2013, № 1–2, Б.114.
8. Марказий давлат архиви РК (ЦГА РК), ф. 177, оп. 1, ед. хр. 13, д. 35, л. 29.
9. Советская Каракалпакия, 1970, 27 январ.
10. Сейдаметова Г.У. Социальная жизнь Каракалпакского общества в 1960-1980-х годах // Вестник КГУ им. Бердаха, Нукус, 2020. № 1. Б. 156-160
11. Сейдаметова Г.У. Сейдаметова Г. У. Жилищно-коммунальные и бытовые проблемы в городах Каракалпакстана в 1960-1980 гг. // Исторический журнал: Научные исследования». Москва, 2018, № 1. С. 124-129